



QASHQADARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI




*Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-oktabr oylari*



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan. 2023- yil 1- noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 7669 tani tashkil etib, 2022- yil 1- noyabrga nisbatan 1182 taga kamaygan (86,6 % ni tashkil etdi). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 18 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7651 tani tashkil qildi. Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **15498,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **105,3 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **757,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4174,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,4 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1966,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,7 %**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	15498,3	105,3	757,3	105,5	41 74,7,0	105,2
<i>shaharlar:</i>						
Qarshi	3 516,9	103,4	393,4	90,1	1 133,2	105,1
Shahrisabz	1 419,1	105,1	23,3	70,4	1 345,1	105,9
<i>tumanlar:</i>						
G'uzor	602,6	106,1	12,6	148,6	481,3	105,4
Dehqonobod	589,6	102,4	5,1	87,4	524,3	102,6
Qamashi	962,0	104,5	12,3	99,6	809,2	104,5
Qarshi	500,8	104,0	11,3	56,2	454,1	105,5
Koson	1 546,1	108,0	77,3	184,0	1 402,5	105,4
Kitob	974,7	105,8	13,3	42,8	823,9	108,4
Mirishkor	533,1	106,4	4,9	94,0	514,3	106,5
Muborak	477,5	106,1	43,7	135,8	346,0	103,5
Nishon	538,8	103,5	5,7	83,1	431,2	103,5
Kasbi	706,4	106,1	27,0	3,6 m.	623,6	103,0
Ko'kdala	385,0	106,5	15,5	-	267,1	103,6
Chiroqchi	1 433,3	106,2	43,6	90,5	697,5	107,7
Shahrisabz	559,8	110,5	57,4	3,4 m.	441,3	102,7
Yakkabog'	752,6	104,7	10,9	92,5	638,3	105,1

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan viloyatning Shahrisabz (**110,5 %**), Koson (**108,0 %**), Chiroqchi (**106,2 %**), Kasbi (**106,5 %**), Kitob (**105,8 %**) va Mirishkor (**106,4 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.




YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-oktabr, mlrd.so‘m)




So‘nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining o‘shish sur‘atlarining eng past ko‘rsatkichi 2020- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2019- yilning mos davriga nisbatan **97,5 %** ni yoki **10185,4** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o‘shish sur‘ati
oylar kesimida (foizda)
(2023- yil yanvar-oktabr oylari)



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida o‘shish sur‘ati **105,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni, Qarshi shahri **22,7 %** bilan **3516,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Ko'kdala tumani **2,5 %** bilan **385,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **12774,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **105,2** %ga ko'paydi. Viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **82,4** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **5,5** % ga ko'paydi va **757,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **4,9** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga koʻra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi boʻyicha Mirishkor (**99,1 %**) Shahrisabz shahar (**98,4 %**), Koson (**95,0 %**), yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **4,9 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahri (**11,2 %**), Shahrisabz (**10,3 %**), Muborak (**9,2 %**), Koson (**5,0 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
Viloyat bo'yicha	4 414,2	103,0
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	12 073,1	101,2
Shahrisabz	9 746,5	103,5
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	2 749,1	103,6
Dehqonobod	3 743,5	100,3
Qamashi	3 326,5	102,3
Qarshi	1 868,6	101,6
Koson	5 029,7	105,5
Kitob	3 502,4	103,8
Mirishkor	4 171,4	104,1
Muborak	5 167,7	104,4
Nishon	3 281,3	101,1
Kasbi	3 362,1	103,8
Ko'kdala	2 078,8	102,9
Chiroqchi	5 439,6	103,7
Shahrisabz	2 407,6	108,7
Yakkabog'	2 699,3	102,5

2023- yilning yanvar-oktabr oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 414,2** ming so'mni (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **103,0** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Qarshi shahri (**12073,1** ming so'm), Shahrisabz shahri (**9746,5** ming so'm) va Chiroqchi tumani (**5439,6** ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1966,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **105,7 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **919,2** mlrd. so'mni (**127,8 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **884,1** mlrd. so'mni tashkil etdi (**113,9 %**).





Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasida yuqori hajmli hududlar (mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)













2023- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **919,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm, yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**511,2** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		mlrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	511,2
	Non va non mahsulotlari	153,2
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	40,2
	Tovuq go'shti	64,2
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'och, bodom, pista va boshqalar)	24,3
	Sut va sut mahsulotlari (pishloq, brinza va boshqalar)	24,5
	Tuxum	21,7
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	9,2
	Ziravorlar	48,0
	Tuzlamalar	18,8
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	3,9
	Nooziq-ovqat tovarlari	-

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **884,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **605,6** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **236,3** mlrd. so‘mni, otlar – **37,1** mlrd. so‘mni, parrandalar – **5,1** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		mlrd. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	389,1
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	168,0
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	48,5
	Qo‘ylar	136,5
	Otlar	37,1
	Echkilar	99,8
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	3,1
	Tovuqlar	2,0
	Quyionlar	-
	Qushlar	-

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1485 tani tashkil etib, 2022- yil 1- noyabr holatiga nisbatan 293 taga kamaygan va o'sish sur'ati 83,5 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1484 tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,7 %** ni tashkil etib, **423,1** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **106,4 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **72,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	423,1	104,6	12,6	62,6	307,3	109,8
<i>shaharlar:</i>						
Qarshi	173,1	106,2	11,5	60,4	143,3	113,4
Shahrisabz	50,0	106,4	-	-	46,2	107,4
<i>tumanlar:</i>						
G'uzor	34,1	105,0	1,1	1140,0	30,8	105,7
Dehqonobod	5,2	101,9	-	-	3,8	103,8
Qamashi	6,0	106,7	-	-	3,5	110,0
Qarshi	15,9	102,3	-	-	15,0	102,6
Koson	11,7	105,3	-	-	5,4	111,5
Kitob	25,8	109,1	-	-	9,4	105,3
Mirishkor	3,5	98,3	-	-	1,3	103,7
Muborak	25,1	101,6	-	-	21,2	102,5
Nishon	6,6	105,9	-	-	4,0	112,8
Kasbi	5,6	108,2	-	-	5,0	109,8
Ko'kdala	5,1	-	-	-	0,9	-
Chiroqchi	26,3	101,1	-	-	6,0	110,3
Shahrisabz	4,4	109,6	-	-	3,8	110,8
Yakkabog'	24,7	100,0	-	-	7,7	106,9

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- sentabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish) **2544,0** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **117,6 %** o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1230,7** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **67,8 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi **1230,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **458,0 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, Foizda
Viloyat bo'yicha	2 544,0	100,0
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	2 312,8	90,9
Shahrisabz	7,4	0,3
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	2,3	0,1
Dehqonobod	3,4	0,1
Qamashi	0,9	-
Qarshi	135,3	5,3
Koson	7,2	0,3
Kitob	16,8	0,7
Mirishkor	5,8	0,2
Muborak	4,4	0,2
Nishon	5,4	0,2
Kasbi	1,0	-
Ko'kdala	1,6	0,1
Chiroqchi	22,1	0,9
Shahrisabz	0,5	-
Yakkabog'	16,9	0,7


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (**2312,8** mlrd. so'm), Qarshi (**135,3** mlrd. so'm) va Chiroqchi (**22,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **5069,7** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **106,1** % ga ko‘paydi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **4391,0** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **109,8** % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **86,6** % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK KORXONALAR

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Kasbi tumani (**159,6 %**) da kuzatildi.

2023- yil 1- noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2329** tani tashkil etib, 2022- yil 1- noyabr holatiga nisbatan **80** taga kamaygan, yoki **96,7 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **15** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2314** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	5 069,7	106,1	678,8	83,7	4390,9	109,8
shaharlar:						
Qarshi	2 164,5	109,4	326,7	96,5	1837,8	112,1
Shahrisabz	457,6	112,9	-	-	457,6	112,9
tumanlar:						
G'uzor	150,4	108,3	-	-	150,4	108,3
Dehqonobod	43,3	101,9	-	-	43,3	101,9
Qamashi	101,5	102,8	-	-	101,5	102,9
Qarshi	442,5	109,7	103,7	124,8	338,9	105,8
Koson	450,3	88,7	72,2	46,9	378,1	106,9
Kitob	277,4	106,3	-	-	277,4	106,3
Mirishkor	147,3	91,3	-	-	147,3	110,2
Muborak	80,0	97,9	3,8	41,1	76,2	105,2
Nishon	90,4	103,7	-	-	90,4	103,7
Kasbi	202,8	149,0	171,9	159,6	30,9	108,8
Ko'kdala	62,6	101,9	-	-	62,6	101,9
Chiroqchi	171,4	83,4	-	-	171,4	115,5
Shahrisabz	120,9	108,9	0,5	-	120,3	108,4
Yakkabog'	106,8	109,6	-	-	106,8	109,6



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. (75) 221-44-28**